



## "COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

### 2-SHO'BA

### RAQAMLI IQTISODIYOT UCHUN INFRATUZILMALAR

#### RAQAMLI IQTISODIYOT: VUJUDGA KELISHI, SAMARADORLIGI, IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

**Boltayeva Moxichexra Jamshid qizi**

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

**Suyunov Abbas Ilyos o'g'li**

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot, elektron tijoratning vujudga kelishi, dunyo iqtisodiyoti va jamiyat hayotida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, raqamli platformalarning rivojlanishi borasidagi izlanishlar natijasi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** "Raqamli iqtisodiyot", AKT, veb-iqtisodiyoti, internet banking, onlayn savdo, elektron to'lov, "Raqamli O'zbekiston – 2030", blokcheyn, kriptovalyuta, IT texnologiyalari.

So'nggi davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasiga juda ko'p duch kelmoqdamiz. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan va rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiy ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazib kelmoqda. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'yaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish raqamli iqtisodiyot tizimi deyiladi. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot kabi terminlar bilan ham ifodalanadi[1-3].

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarini rivojlanishi va hayotga tadbiq qilinishi evaziga kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar yaratilmoqda. Aytaylik uyda ovqat tayyorlashni xushlamaysiz, muammo yo'q, internet orqali ovqat yetkazib berish xizmatiga onlayn buyurtma berishingiz yoki taksi xizmatlari orqali ovqat keltirib berishlarini so'rashningiz mumkin. Yoki do'stingizga pul o'tkazishingiz lozim. Bank yoki moliya muassasalariga borib ovora bo'lishga hojat yo'q. Pulni onlayn pul o'tkazish va to'lov platformalari



## "COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

yoki ilovalar orqali o'tkazishingiz mumkin[4-5]. Shu kabi bir qancha xizmatlarni onlayn tarzda, smartfoningiz yoki kompyuteringiz orqali amalga oshirishingiz mumkin. Zamonaviy texnologiyalar va platformalarda ishslash mijozlar, hamkor va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlar segmentini qisqartirishga yordam beradi. Shuningdek, o'zaro muloqot jarayonini tez va oson amalga oshirishga imkoniyat yaratmoqda. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi[6-8].

Raqamli iqtisodiyot tushuncha sifatida 1995-yili Massachusetts universiteti professor olimi, amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte tomonidan amaliyatga kiritilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan. Hozirda ushbu tushunchadan butun dunyo siyosatchilari, iqtisodchilari, jurnalistlari, tadbirkorlari - deyarli barcha foydalanmoqda. Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishslash va analiz qilish yordamida har xil turdag'i ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, saqlash, qurilmalar, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir[9]. Boshqacha qilib ta'riflaganda, raqamli iqtisodiyot bu asosan onlayn xizmatlar ko'rsatish, internet banking, onlayn o'yinlar, internet savdo, elektron to'lovlar amalga oshirish, kraufdanding va boshqa turdag'i sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarishda mehnat samaradorligini oshishi;
- ishlab chiqarishdagi xarajatlarning kamayishi;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o'sishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo'lishi;
- yangi ish o'rnlari yaratilinishi;
- kambag'allikni yengish va ijtimoiy tengsizlikning yo'qolishi.

Raqamli iqtisodiyotning bizlarga yaratib beruvchi bir qancha afzal tomonlarini ko'rib chiqdik. Albatta raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga ijobiy ta'sir o'tkazadi, oddiy foydalanuvchiga ko'plab qo'shimcha imkoniyatlar va sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari bozorni o'sishi



## "COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

va rivojlanishini ta'minlab berishi ham mumkin[10]. Ammo ushbu tizimning salbiy tomonlari va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarini ham ko'rib chiqib, tahlil qilib o'tishimiz lozim.

- Kiber hujum xavfi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq muammolar;
- "raqamli qullik" (millionlab insonlar ma'lumotlaridan keyinchalik ularni o'zlarini tutishini boshqarish uchun foydalanish);
- axborot texnologiyalarini rivojlanishi va uni tadbiq qilinishi natijasida bir qancha sohalar va kasblar yo'q bo'lib ketishi, buning natijasida ishsizlar soni ortishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida davlat barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qonun-qoidalari, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur. Dunyo rivojlangan mamlakatlari singari O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Hozirgi kunda uydan chiqmasdan turib har turdag'i iste'mol tovarlarini buyurtma qilishimiz mumkin.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079 sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi tuzilib, mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish to'g'risida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda "yo'l xarita"lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish kabi bir qancha vazifalar yuklatildi.

Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekistonning rivojlanish potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoqda. Ya'ni imkoniyat yaratilishi va kerakli resurslar mavjudligiga qaramasdan rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin:



## "COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

- ko‘plab sohalardagi monopoliya;
- internet tezligining past va sifatsizligi;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining o‘ta pastligi;
- axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularning boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketishi;
- axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;
- axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;
- boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki(ba’zilarida) ularning umuman yo’qligi;

Raqamli iqtisodiyotning asosiy elementi sifatida elektron tijorat ko‘riladi. Elektron tijoratning vujudga kelishi XX asrning 60-70-yillari axborot texnologiyalari sohasida inqilobning boshlanishiga borib taqaladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi korxonalar o‘rtasida va ularning ichida ma’lumotlar almashuvini soddalashtirish va arzonlashtirishga imkon berdi. Internet rivojlanishi davomida individual va korporativ foydalanuvchilar elektron aloqalari shakllandi. Bu esa axborotni ancha qiymatga ega va topish ancha oson bo’lgan yangi elektron sohaning yaratilishiga asos bo’lgan. Elektron tijoratning rivojlanishi O’zbekiston mehnat bozori strukturasiga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi. Yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o’rinlarini yaratadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, O’zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o’sib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot, elektron tijoratning hayotga tadbiq qilinishi iste’molchilarga qulayliklar yaratib bermoqda. Misol uchun, sizga oyoq kiyim kerak. Bunda siz bozorga tushib sotib olishingiz mumkin. Lekin internet saytlari yoki telegram kanallari orqali sotib olishingiz, to’lov qilishingiz va yetkazib berishlariga buyurtma qilishingiz mumkin. Biz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichida yashamoqdamiz. Masalan, oylik-maoshimiz plastik kartalarga tushadi, to’lov ilovalari orqali communal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to’lov qilamiz, elektron shaklda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul o’tkazamiz, uyga taom buyurtma qilamiz.

Yuqorida keltirilgan muammolar bosqichma-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O’zbekiston ham bemalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo‘la oladi. Raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro



## “COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

moliya bozorlarida foydalanish masalalari yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalgalashirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079 sonli farmoni
2. G‘.M. Porsaev, B.SH. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. –T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2004.
3. B.Shafarov, U.X.Narzullayev, N.R.Zaynalov, G‘.M.Porsaev; Milliy iqtisodiyotda axborot tizimlar va texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma// Samarqand: SamDU nashri, 2019, 272 b.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
5. <https://zarnews.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-bizga-nima-beradi>
6. <https://mineconomy.uz/uz/node/2389>
7. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish>
8. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/raqamli-iqtisodiyot-nima>
9. <https://review.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>
10. Boltayeva M., Suyunov A. Mustaqillik yillarda aholiga ijtimoiy-iqtisodiy xizmat korsatish strukturasini takomillashtirish //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 538-541.
11. Boltayeva M. Kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar (jizzax viloyati misolida) //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 541-542.